Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319464

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

MEHNATNI TASHHIL ETISH ISHLARINING YO'NALISHLAR

Mirzaqosimov Husanboy Mirzaqosim o'g'li,
Andijon mashinasozlik instituti
"Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" yo'nalishi 4-kurs talabasi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni – bu, avvalo, mehnat jarayonidan iborat bo'lib, u kishi mehnati, mehnat predmeti va mehnat vositalarini o'z ichiga oladi. Mehnat _ kishilarning ma'lum bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyati bo'lib, bu faoliyat natijasida ular tabiatdagi mavjud narsalarni o'zgartirish, o'z ehtiyojlariga moslashtirish orqali moddiy ne'matlar va madaniy boyliklar yaratadilar. Mehnatning shu tariqa ifoda topgan mohiyati har qanday kishilik jamiyatida ham ishlab chiqarshning asosiy sharti bo'lib qolaveradi. Chunki, mehnatsiz moddiy ne'matlar yaratilishi, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonining bo'lishi mumkin emas. Kishi mehnati yo'naltirilgan tabiatdagi barcha narsalar mehnat predmeti, deyiladi. Kishilar o'z mehnat predmetiga qanday vositalar bilan ta'sir ko'rsatsalar, ana shunga mehnat vositalari, deyiladi. Mehnat vositalari orasida mehnat qurollari muhim rol o'ynaydi.

Mehnat muhofazasi - inson ning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobilyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo'llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika chora tadbirlari belgilab qo'yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog'lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi.Mehnat predmeti bilan mehnat vositalari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi. Ammo ishlab chiqarish vositalari har qancha zamonaviy, rivojlangan, takomillashgan bo'lsa-da, hatto jahon standartlari talablariga to'la javob bersa-da, o'z holicha harakatga kelmaydi. Ular faqat ishchi kuchi, ya'ni insoning mehnat qobiliyati bilan birlashgandan so'nggina harakatga keladi, mehnat jarayoni amalga oshadi, moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi yoki ma'lum xizmatlar ko'rsatiladi. Demak, mehnat jaryoni, ya'ni moddiy ne'matlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida kishilarning bevosita mehnati muhim rol o'ynaydi.
Shu sababli mehnatni oqilona tashkil etish va boshqarish, uni maqsadga muvofiq sarflash, bekordan-bekor isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va shular asosida ishlab chiqarishning, xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshirish bozor iqtisodiyotining hozirgi sharoitidagi muhim va dolzarb muammolardan biridir.

Mehnatni tashkil etish tekshirish, tahlil etish, hisoblash, tatbiq etish, nazorat, tashkiliy va texnikaviy ishlar qamrovidagi masalalar majmuini o'z ichiga olib, uning mazmuni quyidagilar bilan belgilanadi:

- Korxonalarda texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish ishining rivojlanishi;

Published: 10.11.2023

Cite this article: Mirzaqosimov Husanboy Mirzaqosim o'g'li (2023). Mehnatni tashhil etish ishlarining yo'nalishlar. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319464

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

- Xodimlarning madaniy-texnik darajasi o‘sib borishi munosabati bilan mehnat taqsimoti va kooperatsiyasini takomillashtirilishidan;
- Bu vazifalar ijobiy hal etilishi uchun ijrochilarni joy-joyiga qo‘yish va ish vaqtidan foydalanishning eng maqsadga muvofiq yo‘llarini belgilash;
- Ko‘p jihatdan, agregatda va ish joyida ishlash hamda kasblar o‘rindoshligining eng samarali shakllarini tanlash, ishlab chiqarish jamoasidagi har bir a’zoning vazifalari, huquq va burchlarini aniq belgilashdan;
- Ish joylarini tashkil etish va ijrochini uning fiziologik va antropometrik xarakteriga hamda estetik idrokiga mos bo‘lgan asbobuskunalar bilan ta’minlash, ish joylariga xizmat ko‘rsatishni uzluksiz yaxshilab borishdan, ish vaqtining isrof bo‘lishini yo‘qotadigan eng samarali xizmat ko‘rsatish tartiblarini joriy qilishdan;
- Mehnat jarayonini takomillashtirish, mehnatning ilg‘or usul va uslublarini joriy qilish, bunga xodimlarning yuqori mehnat unumdorligini ta’min etuvchi eng oqilona mehnat jarayonini loyihalash va tatbiq qilish, shuningdek, mehnatning ilg‘or usul va uslublarini aniqlash, o‘rganish, tanlash va yoyish yo‘li bilan erishishdan;
- Xodimlarni tanlash, tayyorlash, ularning malakalarini oshirishni tashkil etishni, bu jarayondagi ish shakllarini yaxshilash.

Ijtimoiy va xususiy sektorlardagi ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnatni tashkil etish uchun bir qancha vazifalarning har birini bir vaqtning o‘zida va bir-biriga bog‘liq holda kompleks hal etish lozim. Iqtisodiy vazifalar provardida ish vaqtini tejash bo‘lib chiqadi. Lekin bu yo‘nalishda eng yuqori darajalarga erishish uchun sog‘lom mehnat sharoiti va natijalaridan manfaatdorlikni ta’minlash zarur bo‘ladi.

Odatda, mehnatni tashkil etish ishlari bir qancha yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladi. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

Korxonalarda texnika, texnologiya, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil etish jarayonlarining rivojlanishi, xodimlarning madaniy-texnika darajasi o‘sib borishi munosabati bilan mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashtirishni takomillashtirish. Bu vazifalarni hal etish eng avvalo, ijrochilarni joy-joyiga qo‘yishni va ularning ish vaqtidan samarali foydalanishini ta’minlovchi eng muvofiq yo‘llarni belgilashni, ko‘p jihozda va ko‘p agregatda xizmat ko‘rsatish hamda kasblar o‘rindoshligining eng samarali shakllarini tanlashni, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jamoasidagi har bir a’zoning vazifalarini, huquq va burchlarini aniq va to‘g‘ri belgilashni ko‘zda tutadi.

Xodimlarning ish joylarini tashkil etish, ularga xizmat ko‘rsatishni doimo takomillashtiib borish, xodimni antropometrik asbobuskunalar (odam gavdasining ayrim qismlari hamda xarakteriga, estetik idrokiga mos asbob-uskunalar) bilan ta’minlash, ish joylariga ish vaqtining behuda sarflanishiga barham beradigan, hech bo‘lmasa kamaytiradigan eng samarali xizmat ko‘rsatish tizimlarini joriy qilish.

Mehnat jarayonlarini takomillashtirish, mehnatning usul va uslublarini joriy qilish. Bu ishga xodimlarning yuqori mehnat unumdorligini ta’min etuvchi eng ratsional mehnat

jarayonini loyihalash va joriy qilish, shuningdek, mehnatning ilg‘or usullarini o‘rganish, tanlash va amaliyotga joriy etish yo‘li bilan erishiladi.

Xodimlarni tanlash, tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish ishlarini yaxshilash, ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan ta’lim shaklari va uslublarini tanlash.

Mehnatni normalashni takomillashtirish, uning ilmiy darajasini yuksaltirish, joriy qilish sohalarini kengaytirish, ilmiy jihatdan asoslangan mehnat normalari va normativlarining salmog‘ini oshirish.

Og‘ir, sermehnat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini mexanizatsiyalashni tezlashtirish hisobiga mehnat sharoitini barcha choralar bilan yaxshilash, ishlovchilar uchun zarur sanitariya-gigiena sharoitini yaratish, mehnat va dam olishning qulay tartiblarini qo‘llash, ishlab chiqarish muhitini estetik (funksional muzikadan foydalanishni ham nazarda tutib) jihatdan o‘zgartirish.

Kishilarning o‘zaro eng qulay mehnat aloqalarini qaror toptirish, mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlash, xodimlarning mehnatda ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

Mehnatni tashkil etish va normalashni takomillashtirish ishlari fiziologlar va psihologlarning ishtiroki bilan ular bergan tavsiyalar asosida olib borilishi kerak.

Yuqorida qayd etganimizdek, mehnat fiziologik jarayon bo‘lib, bunda odam jismoniy va aqliy energiya sarflaydi. Aqliy energiya sarfi bilan jismoniy energiya sarfining turli nisbatda bo‘lishi esa, mehnatning mazmuniga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat jarayonining tarkibiy qismlari (usullari, harakatlari, qimirlashlari)ning murakkabligi va xilma-xilligi, bu qismlarning bajarilish tartibini mustaqil tanlash, hisoblash, rejalashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlari mehnatning mazmuniga muhim o‘zgarishlar kiritadi.

Odamning ish qobiliyati bir qancha fanlar tekshirib, o‘rganayotgan ko‘p murakkab omillarga bog‘liq. «Mehnat fiziologiyasi va psihologiyasi», «Mehnat sanitariyasi va gigienasi», «Ergonomika», «Muhandislik psihologiyasi», «Ishlab chiqarish estetikasi», «Mehnat sotsiologiyasi» ana shunday fanlar jumlasidandir.

«Mehnat fiziologiyasi» mehnat faoliyatining inson organizmiga ta’sirini tadqiq qiladi hamda uning yuqori mehnat qobiliyatini uzoq vaqt saqlashga qaratilgan tavsiyalar beradi.

Xulosa. Korxonalarda mehnat muhofazasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi ishlovchi ishchi xodimlarga qulay sharoitlarni yaratib beradi.Qulay sharoitlar yaratilgandagina xodimlar o‘rtasida kasb kasallikari,turli xil zo‘riqishlar oldi olinadi.Hamda dam olish vaqtlari ham qonunlarda belgilangan tartibda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi.Bu yaratilgan komfort sharoitlar tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulot va turli xil xom-ashyolar sifatli darajada ishlab chiqiladi.

Ilmiy raxbar: A.Abduraxmanov

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 246-son 2017-yil 27-aprel 3-bob. “Zararli va xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganligi uchun hodimlarga imtiyoz va kafolatlar to‘g‘ri berilganligi va haqiqiy mehnat sharoitlarini baholashda davlat ekspertizasini o‘tkazish tartibi” qarori.
2. Hayot faoliyati. Ekologiya. O.D.Rahimov, I.X Siddiqov, M.O Murodov. Oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishlari uchun darslik. T.: “Aloqachi”, 2017-

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
IB&KT
FAKULTETI
2022